

Belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2025- yilning III- choragida amalga oshirilgan ishlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasida o‘tkazilgan Kengashning kengaytirilgan yig‘ilishini Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi boshlig‘i T.Ganiyev ochib berdi va yig‘ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib o‘tdi.

Shu bilan birga, Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yil 27-noyabr kuni bo‘lib o‘tgan Hay‘at yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan masalalarga alohida e‘tibor qaratildi. Ushbu Hay‘at yig‘ilishida Milliy statistika qo‘mitasi Raisi Xamrayev Bekzod Saylixanovich olib bordi. Unda davlat statistika tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, joriy yilning birinchi yarim yilligidagi faoliyat natijalari, mavjud muammolar, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar batafsil muhokama qilingani ta‘kidlab o‘tildi.

Yig‘ilishda, jumladan, kadrlar salohiyatining yetarli emasligi, rahbarlar faoliyatidagi qoniqarsizliklar, kadrlar bilan ishlash tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqish zarurligi ta‘kidlandi. Xodimlarning sohaviy bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash, tahlil qilish qobiliyatini oshirish bo‘yicha aniq choralar belgilandi.

Shuningdek, Prezidentning PF–27-sonli Farmoni va PQ–75-sonli Qarorida belgilangan vazifalar ijrosi, axborot tizimlarini integratsiya qilish, hisobot yukini kamaytirish, hisobotlarni avtomatlashtirish va qayta ishlash jarayonlarini samarali yo‘lga qo‘yish muhim ekanligi qayd etildi. Ushbu hujjatlar xodimlar tomonidan yetarli darajada o‘rganilmagani tanqid qilindi.

Boshqarma va bo‘lim rahbarlarining hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bog‘liq barcha ko‘rsatkichlarni bilishi, korxonalar faoliyatini chuqur tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi shartligi ta‘kidlandi.

Jumladan, dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida Yalpi hududiy mahsulot hajmi joriy narxlarda 36 814,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2024-yilning mos davri bilan taqqoslaganda 106,1 % ni tashkil qildi.

Respublika korxonalari tomonidan 2025-yilning yanvar-sentabr oylari davomida 20 269,2 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi indeksi 102,6 % ni tashkil etdi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 12 129,3 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2024 yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 104,3 % ga yetdi.

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida investitsion faollikning oshganligi kuzatilib, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmining 2024-yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 116,1 % ni tashkil etdi. Respublikada jami 7 306,8 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘shish sur‘ati 110,4 % ga teng bo‘ldi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 23 627,1 mlrd. so'mni, 2024-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,3 % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi 10 590,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 109,7 % ga oshdi. Respublikaning tashqi savdo aylanmasi 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida 516,1 mln. AQSH dollarini, jumladan eksport 308,2 mln. AQSH dollarini va import 207,9 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Davlat xizmatlari markazi tomonidan ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2025-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 30 399 tani tashkil etib, ulardan 23 166 tasi yoki 76,2 % i faoliyat ko'rsatmoqda. 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida respublikada 3 046 ta korxonalar va tashkilotlar yangidan tashkil etildi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning 1- oktabr holatiga ko'ra respublika bo'yicha doimiy aholi soni 2 046,9 ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 24,4 ming kishiga, yani 1,2 foizga ko'paydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi boshlig'i T.Ganiyev yig'ilish davomida kun tartibiga muvofiq, tizimda "Statistika dasturi"ning ijrosi hamda yig'ilishning 2025-yil II yarim yillik ish rejasiga kiritilgan tadbirlarning bajarilishi bo'yicha boshqarmaning mutasaddilari tomonidan hisobotlar berish jarayonida har bir masalani atroflicha muhokama qilinishini ta'kidladi va kun tartibidagi navbatdagi masalalar muhokamasiga o'tilishini e'tirof etdi.